

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA XITOIY TILINI O'QITISH: SUN'IY INTELLEKT IMKONIYATLARI

ОБУЧЕНИЕ КИТАЙСКОМУ ЯЗЫКУ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ: ВОЗМОЖНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

TEACHING CHINESE IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT: OPPORTUNITIES OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-23-16-21>

Razzaqov Muzaffar Mehroj o'g'li,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti Xalqaro huquq fakulteti
3-bosqich talabasi
razzaqovmuzaffar01@gmail.com

Ilmiy rahbar: “Sharq tillari kafedrası”
o'qituvchisi, PhD Zebo Shamsiddinova

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda rivojlanayotgan raqamli ta'lim muhitida xitoy tilini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni, imkoniyatlari va foydali jihatlari yoritilgan. Xususan, ChatGPT, Duolingo, Ibrat Academy va Skritter kabi ilovalarda foydalanilgan sun'iy intellekt algoritmlarining xitoy tili o'qitish tizimiga ta'siri ham ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida mazkur texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muallif tomonidan amaliy taklif va mulohazalar ham bildirilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, xitoy tili ta'limi, raqamli ta'lim, adaptiv o'rganish, , iyerogliflarni tanish, til o'rganish ilovalari, ChatGPT.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль, возможности и преимущества технологий искусственного интеллекта в преподавании китайского языка в условиях современной развивающейся цифровой образовательной среды. В частности, анализируется влияние алгоритмов искусственного интеллекта, используемых в таких приложениях, как ChatGPT, Duolingo, Ibrat Academy и Skritter, на систему обучения китайскому языку. Кроме того, автором представлены практические предложения и рекомендации по внедрению данных технологий в высших образовательных учреждениях Узбекистана.

Ключевые слова: искусственный интеллект, изучение китайского языка, цифровое обучение, адаптивное обучение, распознавание символов, приложения для изучения языков, ChatGPT.

Abstract: *This article examines the role, opportunities, and advantages of artificial intelligence technologies in teaching the Chinese language within the context of today's rapidly developing digital educational environment. In particular, the article analyzes the impact of artificial intelligence algorithms used in applications such as ChatGPT, Duolingo, Ibrat Academy, and Skritter on the system of Chinese language teaching. In addition, the author presents practical suggestions and recommendations for implementing these technologies in higher educational institutions in Uzbekistan.*

Keywords: *artificial intelligence, Chinese language learning, digital learning, adaptive learning, , character recognition, language learning applications, ChatGPT.*

Kirish

Hozirgi davrda zamonaviy texnologiyalar shunchalik tez rivojlanmoqdaki, bu o'zgarishlar albatta ta'lim sohasining ham rivojlanishida o'z hissasini qo'shmoqda. Bugungi kunda juda ham tez ommalashayotgan hamda kundan kunga rivojlanib borayotgan sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari, ayniqsa, chet tillarini o'qitishda misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochib bermoqda. Xitoy tili esa o'z xususiyati jihatidan boshqa tillarga nisbatan ancha murakkab - iyerogliflar tizimi, to'rt ohang (tonal sistema) va boshqa tillarda takrorlanmas bo'lgan grammatikaning o'ziga xos tuzilishi bilan har bir o'rganuvchiga dastlabki bosqichdayoq jiddiy to'siq bo'lib ko'rinadi. Ana shu qiyinchiliklarga aynan sun'iy intellekt texnologiyalari juda ham samarali yechimlarni, o'qitish tizimida kreativ bo'lgan yo'llar bilan yechim topmoqda.


O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasidagi iqtisodiy va diplomatik aloqalarning yildan-yilga kengayib borayotgani, O'zbekistonning yosh qatlamida xitoy tiliga bo'lgan qiziqishni ham keskin oshirdi. Buning natijasida mamlakatimizning bir qator oliy ta'lim muassasalarida xitoy tili o'quv kurslari ochildi yoki kuchaytirildi. Biroq, hozirgi kundagi o'qitish sifati va imkoniyatlarini sun'iy intellekt texnologiyalari bilan ikki yoki 3 barobarga tizimlashtirgan holda osonroq va aqlliyoq qilib oshirish mumkin. Shu boisdan, raqamli davr muhitida sun'iy intellektidan foydalanish mazkur sohada O'zbekiston uchun nafaqat dolzarb, balki qiynab turgan muammolarga yechim deb aytsak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Asosiy qism

Xitoy tilini o'rganishdagi eng katta muammolardan biri - bu iyerogliflar. Iyerogliflar xitoy tilining eng muhim qismidir. Alifbo barcha tillarni o'rganish asosi bo'lsa, xitoy tilida iyerogliflardir. Ikkalasi o'rtasida farq shundaki, alifboda harflar cheklangan bo'ladi, masalan o'zbek tilida 29 ta harf, ingliz tilida 26 harf mavjud va shu tillardagi barcha so'zlarni, shu harflarni bilsa istalgan so'zni o'qiy olish mumkin. Xitoy tilida esa iyerogliflarni soni eng ko'pi “*Yitizi zidian*” (异体字字典) 106 230 ta, *Xitoycha belgilarning buyuk to'plami* yoki “*Hanyu Da Zidian*” (汉语大字典;) ga ko'ra, mavjud belgilar soni aslida 54 678 ta ekanligi ko'rsatilgan.

Shunga qaramasdan, hozirgi zamonaviy xitoy tilida eng keng qo'llaniladigan belgilar jadvali **7000** ta iyeroglif mavjudligini belgilaydi. Har bir iyeroglif alohida o'rganilishi, yod olinishi va to'g'ri tartibda yozilishi kerak. Bu jarayon an'anaviy usulda ko'p vaqt va juda ko'p kuch talab qiladi. Ammo, hozirgi davrda sun'iy intellekt asosidagi optik belgi tanish (OCR - Optical Character Recognition) texnologiyalari bu muammoni sezilarli darajada yengillashtirdi. Masalan, **Skritter** ilovasi sun'iy intellekt elementlari asosidagi interaktiv algoritmlar xitoy iyerogliflarini o'rgatishda qo'l yozuvini aniqlash, chiziqlar ketma-ketligini tahlil qilish hamda takrorlash tizimi kabi sun'iy intellekt elementlariga asoslangan interaktiv texnologiyalardan foydalanadi, shuningdek, iyerogliflarni yozilishini, to'g'ri yoza olish uchun mashqlarni beradi. ¹


Xitoy tilida juda ko'pchilik odamlarda ohanglar masalasi ham jiddiy muammo hisoblanadi. Xitoy tilida 4 ta ohang mavjud bo'lib, bir xil so'zning ohangi o'zgarganda ma'nosi ham butunlay o'zgarib ketadi. Masalan, **mā (ona), má (kanop), mǎ (ot), mà (so'kmoq)** - to'rttalasi ham bir xil harflardan iborat, faqat ohang belgilarida va talaffuz qilishda farq qiladi. Agarad muayyan ohangdagi bir so'z noto'g'ri talaffuz qilinib boshqa ohangda aytilsa, gapirayotgan kishi nutqida tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin. **Duolingo** ilovasi xitoy tilini o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi interaktiv texnologiyalar va moslashuvchan o'quv algoritmlaridan foydalanadi. Ilova foydalanuvchining bilim darajasi, xatolari hamda o'rganish tezligini tahlil qilib, unga mos individual mashqlarni taqdim etadi. Ayniqsa, xitoy tilidagi **ohanglarni (tonlarni)** o'rgatishda ovozni aniqlash va talaffuzni avtomatik tekshirish texnologiyalaridan foydalanilishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizim foydalanuvchining talaffuzidagi ohang xatolarini aniqlab, ularni to'g'rilash bo'yicha tezkor tavsiyalar beradi. Shuningdek, tinglab tushunish, so'z boyligini mustahkamlash va grammatik ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan interaktiv mashqlar tilni samarali o'zlashtirishga yordam beradi. **Duolingo**dagi o'yinlashtirilgan ta'lim usullari esa foydalanuvchilarning xitoy tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini yanada oshiradi(1-ilova).



1-ilova

Xorijiy tilni o‘rganish mobaynida albatta o‘sha tilni grammatikasini o‘rganish juda ham muhim qismidir. Bu borada, **ChatGPT** xitoy tilini o‘qitishda samarali vosita xizmat ko‘rsatishi mumkin. Ushbu ilova, foydalanuvchilarga xitoy tili grammatikasi va til qoidalarini sodda hamda tushunarli tarzda izohlab berish, murakkab mavzularni misollar orqali tushuntirish imkonini yaratadi. Shuningdek, **ChatGPT** foydalanuvchining bilim darajasiga mos ravishda savollarga javob berib, individual ta‘lim muhitini shakllantiradi. Platforma xitoy tilidagi matnlarni pinyin bilan yoki pinyinsiz o‘qish va o‘rganish imkoniyatini ham taqdim etadi. Bu esa o‘quvchilarning talaffuz, iyerogliflarni tanish hamda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, **ChatGPT** yordamida dialog tuzish, tarjima qilish, yangi so‘zlarni o‘rganish va yozma mashqlar bajarish orqali xitoy tilini samarali o‘zlashtirish mumkin.

(2-ilova).




2-ilova

Ayni damda, O‘zbekiston Respublikasida ham tillarni o‘ranishni samarali yo‘llari o‘ylab topilmoqda. Hozirgi kunda, ularning orasida eng mashhurlaridan biri **Ibrat Academy** ilovasidir. Bu ilovada nafaqat xitoy tili, balki, juda ham ko‘p tillarni o‘rganish mumkin. Bu ilovada ham, xitoy tili grammatikasi qiziqarli o‘yinlar orqali o‘rgatiladi. Sun‘iy intellekt orqali gapirish mashqlari, yozish mashqlari olib boriladi. Har bir o‘rganuvchi talaba uchun sun‘iy intellekt tomonidan aynan uning darajasiga mos keladigan o‘quv rejalari tayyorlab berishi, va shu reja asosida darslar o‘tilishi mumkin. Undan tashqari, xitoy tili bo‘yicha yuqori bilim darajasiga ega bo‘lgan o‘qituvchi tomonidan tayyorlangan videodarslar, shu videodarslar davomida berilgan uyga vazifalar berilishi va sun‘iy intellekt tomonidan tekshirilib, u tomonidan fikr-mulohazalar berish orqali unga ko‘rsatmalar berishi mumkin(3-ilova).

Albatta, sun‘iy intellektning barcha imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun talabagina emas, o‘qituvchi ham mazkur texnologiyalarni tushunishi va ulardan

oqilona foydalana bilishi zarur. Bu borada universitetlar o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar va seminarlar o‘tkazishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki sun‘iy intellekt o‘qituvchini to‘liq almashtira olmaydi - u faqat yordamchi, ammo juda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Asosiy pedagogik yo‘naltirish, motivatsiya berish, madaniyatni tushuntirish - bu vazifalar hali ham faqat jonli o‘qituvchi uddasidan chiqa oladi.



Xulosa

Sun‘iy intellekt texnologiyalari xitoy tilini o‘qitishda juda katta ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Iyerogliflarni tanish va yozishdan tortib ohang talaffuzini baholash, adaptiv mashqlar taqdim etish va individual kamchiliklarni aniqlashgacha - bularning barchasi bugun raqamli ilovalar orqali amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston ham bu imkoniyatlardan o‘z vaqtida foydalangan holda, yanada rivojlantirib ta‘lim tizimiga qo‘shish lozim. Universitetlarimiz sun‘iy intellekt asosidagi chet tilini o‘qitish vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etsa, xitoy tili o‘qitishda sezilarli darajada oshishni kuzatishimiz mumkin. Mazkur zamonaviy texnologiyalar, sun‘iy intellekt vositalari qanchalik zamonaviy, qobilyatli bo‘lmasin, ular o‘qituvchini o‘rnini bosa olmaydi - u qo‘shimcha, lekin juda kuchli vositadir. Uning vositasida juda ko‘p vaqt oladigan mayda ishalarini qisqa muddatda bajarishi, o‘qituvchilarning ishini ikki yoki uch barobarga osonlashtiradi. Eng muhimi, bu vositalar talabaga mustaqil o‘rganish yo‘lida hamroh bo‘ladi, o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA WEB-SAHIFALAR

1. How Many Characters Are There?
2. Enhancing foreign language learning through AI-driven telecollaboration
3. <https://ibratfarzandlari.uz/>
4. <https://chatgpt.com/>
5. <https://www.duolingo.com/>

6. Shamsiddinova Z. O ‘ZBEK TILIDAGI-GAN AFFIKSINING GRAMMATIK MA’NOLARI VA ULARNING XITOY TILIDA IFODALANISHI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 27. – С. 34-37.
7. Шамсиддинова А. С. и др. ОЦЕНКА УРОВНЕЙ АКТИВНОСТИ МАТРИКСНЫХ МЕТАЛЛОПРОТЕИНАЗ И ДРУГИХ МАРКЕРОВ ВОСПАЛЕНИЯ У БОЛЬНЫХ ОСТРЫМ КОРОНАРНЫМ СИНДРОМОМ //Форум молодых ученых. – 2024. – №. 1 (89). – С. 159-162.
8. Shamsiddinova Z. UNCERTAIN PAST TENSE IN THE TRANSLATION OF UZBEK ARTISTIC WORKS INTO CHINESE //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 23. – С. 228-232.
9. Shamsiddinova Z. F. Feature of the use of temperaments in the socio-political texts of the modern chinese //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 10. – С. 447-453.